

**Navruzova Go'zal Olimjon qizi**  
**Department of Budget Accounting and Treasury.**  
**Tashkent State University of Economics, Tashkent. Uzbekistan**  
**ORCID: 0009-0006-9577-3744**

**BUDJET XARAJATLARINING SAMARALI IJROSIDA**  
**G'AZNACHILIKNING O'RNI.**

**Navruzova Go'zal Olimjon qizi**  
Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti o'qituvchisi

**РОЛЬ КАЗНАЧЕЙСТВА В ЭФФЕКТИВНОМ ИСПОЛНЕНИИ**  
**БЮДЖЕТНЫХ РАСХОДОВ.**

**Наврузова Гўзал Олимжон кизи**  
Преподаватель  
Ташкентского государственного  
экономического университета

**THE ROLE OF THE TREASURY IN THE EFFECTIVE EXECUTION**  
**OF BUDGET EXPENDITURES.**

**Navruzova Go'zal Olimjon qizi**  
Teacher of Tashkent State University of Economics

**Annotatsiya**

Maqolada budjet xarajatlarining samarali ijrosini tashkil etishda g'aznachilik tizimining ro'li va ahamiyati yoritilgan. G'aznachilikning rivojlanish bosqichlari va nazariy asoslari. Undan tashqari g'aznachilik xizmati qo'mitasining moliyaviy majburiyatlar ijrosi boshqarmasi vazifalari ham o'rganilgan. Hozirgi kunda g'aznachilikda davlat budjeti xarajatlar ijrosi tahlil qilingan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning g'aznachilik tizimiga bog'liqligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar**

G'aznachilik, budjet, xarajatlar, G'aznachilik xizmati qo'mitasi, moliyaviy majburiyatlar, islohotlar, g'aznachilikning nazariy asoslari, g'aznachilikning rivojlanish bosqichlari.

## **Аннотация**

В статье описаны роль и значение казначейской системы в организации эффективного исполнения бюджетных расходов. Этапы развития и теоретические основы казначейства. Кроме того, были изучены функции Департамента финансовых обязательств Комитета казначейской службы. В настоящее время анализируется исполнение расходов государственного бюджета в казначействе. Показано, что реализуемые в Узбекистане реформы зависят от казначейской системы.

## **Ключевые слова**

Казначейство, бюджет, расходы, Комитет казначейской службы, финансовые обязательства, реформы, теоретические основы казначейства, этапы развития казначейства.

## **Abstract**

The article describes the role and importance of the treasury system in organizing the effective implementation of budget expenditures. Development stages and theoretical foundations of treasury. In addition, the functions of the Treasury Service Committee's Department of Financial Obligations were also studied. Currently, the execution of state budget expenditures in the treasury is analyzed. It is shown that the reforms implemented in Uzbekistan depend on the treasury system.

## **Keywords**

Treasury, budget, expenditure, Treasury Service Committee, financial obligations, reforms, theoretical basis of treasury, stages of development of treasury.

## **Kirish**

G'aznachilik tizimi – budjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi, qabul qilingan majburiyatlarga asosan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun G'aznachilik ularining nomidan va ularning topshirig'iga asosan vakolatni o'ziga oladi va budjet mablag'larini maqsadli

ishlatilishini ta'minlash asosida to'lovni amalga oshiradi. Budget xarajatlarini G'aznachilikning yagona hisob raqami asosida amalga oshirilishi moliyaviy rejalashtirishni ya'ni to'lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborot tizimini joriy etish, tahlil qilish, budget tashkilotlari xarajatlarini joriy nazoratini va rejalashtirishni takomillashtirish imkonini beradi.

G'aznachilik tizimi budget xarajatlarini Yagona G'azna hisobvarag'i asosida amalga oshirilishi moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishga yordam beradi. Xarajatlar smetasiga muvofiq, to'lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborot tizimini joriy etish, budget mablag'lari ishlatilishini tahlil qilish, budget tashkilotlari xarajatlarini dastlabki va joriy nazorat mexanizmini takomillashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat budgeti ijrosining G'aznachilik tizimini joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish budgetdan mablag' oluvchilar, moliya organlari bilan birgalikda G'aznachilik organlariga ham yuklatiladi. G'aznachilik organlari tomonidan budget tashkilotlariga mablag' berishdan oldin, to'lov hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish, bu xarajatlar smetalarida ko'rsatilganligi va belgilangan limitlar doirasida ekanligi, o'tkaziladigan pul uchun mahsulotlar olinganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi, belgilangan narxlarni tekshirish dastlabki nazorat doirasiga kiradi. Dastlabki nazorat kassa ijrosidan oldin o'tkaziladi. Xorijiy davlatlarda bunday tekshiruv G'aznachilik auditorlari tomonidan o'tkaziladi.

Dastlabki nazorat budget tashkilotlari, mahalliy xokimiyat organlari tomonidan budget qonunlariga zid holda chiqarilgan farmoyishlar ijrosini to'xtatish imkoniyatini beradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari Barri Potter va Jek Daymont[3] shuni etirof etadilarki, "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tarkibidagi ko'pchilik mamlakatlar davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik tizimiga suyanishadi va bunda g'aznachilik tizimining Moliya vaziri tomonidan boshqarilishi davlat

mablag‘larini ishlatilish samaradorligini va ularning o‘z vaqtida va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat etish sifatini ham sezilarli darajada oshiradi” G‘aznachilik tizimi davlatning markaziy hukumati va xududlardagi boshqaruv organlarining asosiy moliyaviy xizmatlarini ta‘minlaydi.

Bu xizmatlar qatorida: davlat mablag‘lari to‘lovlarini amalga oshirish, mablag‘lar harakati hisobi va hisobotini ta‘mimlashi, fiskal hisobot, va xokazolarni markazlashtiradi. Tarraqiy etgan davlatlar moliya vazirligi va boshqa tarmoq vazirliklari uchun davlat moliyasini shakllantirish, ijro qilish va nazorati bo‘yicha funksional bog‘liq tarzda kompyuter tizimini tuzadi va doimiy ravishda takomillashtiradi. Bu yaxlit – integrallashgan tizim, shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan kompyuter dasturlari, budjetning barcha darajalariga, mahalliy budjetlarga ishlov berish uchun, davlat qarzini boshqaruv vazifalarini optimallashtirishda, budjetdan tashqari fondlarni shakllantirish va birlashtirish, mahalliy moliya organlari va boshqa tashkilotlarining moliyasini boshqarish funksiyalari uchun alohida ixtisoslashgan dasturlarni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy adabiyotlarda G‘aznachilik tizimining turli izohlari uchraydi. Shuni e‘tiborga olish kerarki bu izoxlar har bir muallif g‘aznachilikning, amalga oshirayotgan faoliyatining o‘zi qiziqayotgan, hususiyatlari va qirralariga urg‘u va ahamiyatini qaratadi. Quyida shu izohlardan birini keltiramiz: “g‘aznachilik[4] tizimida budjetdan mablag‘ oluvchilar topshirig‘iga ko‘ra to‘lov majburiyatlarini ijroga qabul qilib olish, va tovarlar yetkazib berilishi, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun bevosita to‘lovlarni amalga oshirilishni g‘aznachilik amalga oshiradi va, bunda budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta‘minlaydi.”

B.Turobov o‘zining Budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda budjet nazoratini mustahkamalash masalalari nomli nomzodlik dissertasiya ishida budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar tomonidan budjet intizomiga rioya qilinish holatini ilmiy-tadqiq qilgan bo‘lsa[5], A.Jabborov o‘z ilmiy ishlarida O‘zbekiston respublikasining davlat moliyaviy nazorati tizimi muammolari va

rivojlantirish yoʻnalishlariga urgʻu bergan boʻlsa[6], Z.Hamidova Budget tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkiliy uslubiy jihatlarini tadqiq qilgan[7].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy usul, mantiqiy tahlil va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

### **Muhokama va tahlil.**

Toʻlovlarni amalga oshirish jarayoni uchun uch bosqichdan oʻtish nazarda tutilgan. Bularning birinchisi yuridik majburiyatlar boʻlib ular quyidagi shakllarda namoyon boʻladi:


- shartnomalar;
- bitimlar;
- qarorlar (masalan, imtiyozlar);
- sud qarorlari (masalan, jarimalar);
- bir taraflama qarorlar (masalan , grantlar)

Ikkinchisi moliyaviy majburiyatlar boʻlib ular quidagi koʻrinishlarda namoyon boʻladilar:

ish haqi vedomostlari

hisob-fakturalar

va boshqalar boʻlishi mumkin



1- rasm. Majburiyatlar konsepsiyasini tushunish uchun, majburiyatlar hisobini yuritish jarayonining quyidagi uchta asosiy elementlari<sup>1</sup>

Uchinchisi to'lov majburiyatlari hisoblanadi va amaliyotda - fuqarolik huquqiy munosabati shaklida namoyon bo'ladi. Unga bir shaxs - (qarzdor) va boshqa shaxs - (kreditor) tarafiga qaratilgan harakatni amalga oshirish, yani: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki ma'lum harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa - qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega (gohida majbur) bo'ladi. Majburiyatlar shartnomada shartlaridan, ziyon yetkazish natijasidan va Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqishi mumkin.

Quyidagi asos hujjatlar bo'lishi lozim:

- Kontrakt yoki shartnomalar tuzish (tender savdolari, tovar va xizmatlarni sotib olish, qarz shartnomalar, patent va litsenziyalar, sug'urta va boshqalar);
- Qonuniy asoslar (stipendiya, nafaqalar va boshqalar);
- Vakolatli davlat organlarining qarorlari (sud qaroriga asosan jarima va penyalar);
- Bir taraflama qarorlar (dotatsiya, grantlar, mukofotlar).

Majburiyat olish budjet tashkiloti mablag'larini boshqaruvchilarning vazifasiga kiradi. Budjet tashkiloti mablag'larini boshqaruvchilari bo'lib budjet tashkilotining rahbari yoki boshqa bu vakolat yuklatilgan shaxs hisoblanadi. G'aznachilik bo'limlarida barcha budjet tashkilotlari mablag'lag'larini boshqaruvchilarining va bosh hisobchilarining imzolari namunasi hamda budjet tashkilotlarining muhrlari namunasi bo'lishi shart.

---

<sup>1</sup> Давлат бюджети ижросининг ғазначилик тизими Мирёкуб Хайдаров; Алиаскар Сувонкулов; Бахтбек Сугирбаев, Ботир Нурматов 2008.

Yuridik majburiyatlar shartnoma ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin paydo bo'ladi:

- Bunda shartnomani imzolashdan oldin budget ajratmalarining mavjudligini tekshirilishi shart;
- To'liq yuridik kuchga kirishi uchun, shartnoma G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak;
- Yuridik majburiyatni ro'yxatdan o'tkazish davri va amalga oshirilgan to'lov o'rtasida uzoq vaqt o'tishi mumkin.

Muhim jarayon bu qabul qilinayotgan yuridik majburiyatlarning aniq hisobiga ega bo'lish. Yuridik majburiyatlar hisobini yuritishdan asosiy maqsad bu budget nazoratini yuritish, ya'ni harajatlarning tasdiqlangan budget ajratmalaridan ortib ketishini oldini olish.

Moliyaviy majburiyatlar :

- Moliyaviy majburiyat tovar va xizmatlar yetkazib berilganidan keyin hamda mol yetkazib beruvchidan hisob-faktura yoki budget tashkilotining kreditor qarzdorligini tasdiqlovchi boshqa hujjat olinganidan kegin paydo bo'ladi;
- Moliyaviy majburiyatni Bosh g'aznachilik kitobida aks ettirish shart bo'lib, u kreditor qarzdorlikka tengdir;
- Moliyaviy majburiyat shartnomada yoki boshqa bitimlarda ko'rsatilgan muddatlar bitishiga qadar qoplanishi kerak.
- Moliyaviy majburiyatlarning aniq hisobiga ega bo'lish ham muhim.

Moliyaviy majburiyatlar hisobini yuritishdan asosiy maqsad bu harajatlarning qabul qilingan yuridik majburiyatlar hajmlari, va o'z navbatida budget ajratmalarining limitlari doirasida amalga oshirilishini ta'minlash, hamda budget tashkilotlarining kreditor qarzdorliklari ustidan nazorat qilish.

Moliyaviy majburiyat - bu g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga muvofiq mahsulotlar yetkazib berilgandan (ishlar, xizmatlar) keyin vujudga keladi.

Davlat budgetining g'aznachilik ijrosi sharoitida to'lovlar:

respublika budjetidan - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar yoki budjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi;


Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlardan - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasi tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar yoki budjet mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarning hisob raqamlariga o'tkazish majburiyatini yuklaydigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Xududiy g'aznachilik hisob raqamlariga o'tilgandan keyin budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar to'lovlari budjetdan mablag' oluvchilarning tijorat banklaridagi budjet hisob raqamlariga emas, to'g'ridan to'g'ri mahsulot yetkazib beruvchilarining hisob raqamlariga o'tkaziladi.

G'aznachilikka o'tgandan keyin budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini amalga oshirish to'lov topshiriqnomalari asosida quyidagi talablarga asoslangan holda:

- moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalari va shtat jadvali o'rniga tuzilgan kalkulyatsiyalari, hamda xarajatlarni amalga oshirish ruxsatnomalar asosida va budjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarining tegishli guruhlari budjet mablag'lari qoldiqlarining summolari doirasida;
- agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa moliya organida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasidan oshmasa;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilishini va budjetdan mablag' oluvchining yetkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan hisobvaraqq-fakturalar yoki boshqa hujjatlar, shuningdek budjetdan mablag' oluvchi zimmasiga yetkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlar bo'lganida;

- yetkazib beruvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan nomi va rekvizitlari yetkazib beruvchining shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlariga muvofiq bo'lsa;
- to'lov topshiriqnomasi "To'lov maqsadi" ustunida budjet tasnifining tegishli kodlari to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa amalga oshiriladi. Ushbu yuqorida keltirilgan talablar to'liq bajarilgan taqdirda budjetdan mablag' oluvchilarning to'lov topshiriqnomalari g'aznachilikning xududiy bo'linmalaridan o'tkazilib, ularning xarajatlari qoplab beriladi.



**2-rasm. G'aznachilik xizmati qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi .<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi g'aznachilik xizmati qo'mitasi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

Hozirgi kunda Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachilik xizmati qo'mitasining moliyaviy majburiyatlar ijrosi boshqarmasi mavjud. Bu boshqarma orqali moliyaviy majburiyatlar va to'lovlar amalga oshiriladi. Bu jarayon davlat budjeti arajatlari samaradorligini baholaydi va ko'rsatadi. Xarajatlarning ijrosi manzilli va maqsadli amalga oshirilishida g'aznachilik xizmati qo'mitasining muhimligini ko'rsatadi.

Moliyaviy majburiyatlar ijrosi boshqarmasi quyidagi bo'limlardan iborat:

**Moliyaviy majburiyatlar va to'lovlar ijrosi** - budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilari nomidan to'lovlarni amalga oshirish, naqd pul mablag'larini olish uchun cheklarni rasmiylashtirish, ishchi xodimlarning plastik kartalariga ish haqi mablag'larini ko'chirish hamda amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha hisob-faktura va boshqa hujjatlarga asosan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish.

**Jamg'armalarga xizmat ko'rsatish** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishlariga asosan zahira jamg'armasi hisobidan tegishli vazirlik va idoralarning shahsiy g'azna hisobvaraqlarga mablag'larni rejalashtirib berish, Davlat maqsadli va boshqa budgetdan tashqari jamg'armalari nomidan to'lovlarni amalga oshirish hamda amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha hisob faktura va boshqa hujjatlarga asosan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish.

**Ta'sischi budget tashkiloti bo'lgan korxonalariga xizmat ko'rsatish** - Davlat unitar korxonalari va Davlat muassasalari nomidan to'lovlarni amalga oshirish, naqd pul mablag'larini olish uchun cheklarni rasmiylashtirish, ishchi xodimlarning plastik kartalariga ish haqi mablag'larini ko'chirish hamda amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha hisob-faktura va boshqa hujjatlarga asosan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish.

**Chet el valyutasidagi operatsiyalari ijrosi** - Budget tashkilotlari va budgetdan mablag' oluvchilarning chet el valyutasidagi xarajatlarini (to'lovlarini) shahsiy g'azna hisobvaraqlaridagi qoldiqlari doirasida chet el valyutasidagi VG'Hdan

amalga oshirish hamda hukumat kafolatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida qarz va kreditlarning qaytarilishi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish.

**Mudofaa majmui tashkilotlariga xizmat ko'rsatish** - Mudofaa majmui tashkilotlarining xarajatlar smetalarini ro'yxatga olish, tuzilgan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va ular nomidan to'lovlarni amalga oshirish hamda amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha hisob - faktura va boshqa hujjatlarga asosan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish.

**Huquq tartibot organlariga qarashli tashkilotlarga xizmat ko'rsatish** - Huquq tartibot organlariga qarashli tashkilotlarning xarajatlar smetalarini ro'yxatga olish, tuzilgan shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish va ular nomidan to'lovlarni amalga oshirish hamda amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha hisob-faktura va boshqa hujjatlarga asosan moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish.

### **Xulosa va taklif**

Budjet xarajatlarining samarali ijrosi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Budjetni to'liq va o'z vaqtida bajarish, xarajatlarni taqsimlash va resurslardan samarali foydalanish davlat moliyasining ustuvor vazifalaridan biridir. G'aznachilikning asosiy vazifalaridan biri – bu davlat budjeti bo'yicha mablag'larni taqsimlash, monitoring qilish va xarajatlarni to'liq ijro etishni ta'minlashdir. Samarali g'aznachilik, shu bilan birga, moliyaviy nazoratni kuchaytirish, adolatli taqsimot va xatarlarni boshqarish orqali budjet xarajatlarining samarali amalga oshirilishini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashishda ham muhim ahamiyatga ega.

1. G'aznachilik tizimini modernizatsiya qilish: Yangi texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalangan holda g'aznachilik tizimini rivojlantirish zarur. Budjet xarajatlari va daromadlarining ijrosi haqidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida monitoring qilinishi, shuningdek, budjet tashkilotlari va davlat organlari o'rtasida yaxshiroq hamkorlik va ma'lumot almashish imkoniyatlarini yaratish kerak.

2. Xarajatlar bo'yicha shaffoflikni oshirish: Budjet mablag'lari qanday taqsimlanayotgani va ishlatilayotgani haqida jamoatchilikka aniq va to'liq ma'lumot berish zarur. Buning uchun mas'ul tashkilotlar muntazam ravishda hisobot berishi, elektron tizimlar orqali monitoring olib borilishi kerak.

3. Moliya va budjet boshqaruvi tizimini takomillashtirish: Budjet xarajatlarini rejalashtirish, hisob-kitob qilish va amalga oshirishda mutaxassislarning malakasini oshirish zarur. Shuningdek, budjet xarajatlarining har bir yo‘nalishi bo‘yicha aniq me‘yorlar va dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish: G‘aznachilik tizimida korrupsiyaning oldini olish uchun qattiq nazorat va monitoring mexanizmlari joriy etilishi zarur. Shuningdek, ilgari surilgan budjet dasturlarining ijrosi bo‘yicha tezkor va aniq tekshiruvlar olib borilishi kerak.

5. Budjet mablag‘larini samarali boshqarish va optimallashtirish: Xarajatlarni optimallashtirish, kam ta‘minlangan hududlarga yo‘naltirilgan mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlash va ularning samarali ishlatilishini ta‘minlash uchun aniq strategiyalar ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, budjetga bo‘lgan talab va resurslarni mukammal baholash tizimi joriy etilishi kerak.

Bu takliflar orqali g‘aznachilikning ro‘li va vazifalari samarali amalga oshirilsa, budjet xarajatlari ham samarali va to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O‘zbekiston», 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013.
3. «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
4. Organization for Economic Cooperation and Development (OECD)
5. Barry Potter, Jack Diamond. Building Treasury Systems. 1999
6. Турабов Б.Т. Бюджетдан молиялаштириладиган ташкилотларда бюджет назоратини мустахкамлаш масалалари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат Тошкент-2008.;
7. Ҳамидова З.У. Бюджет ташкилотларида ички аудит хизматини ташкилий услубий жиҳатлари. «Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш» мавзусидаги республика онлайн илмий-амалий

конференция тезислар тўплами. – Тошкент: «Молия» нашриёти,  
2020. 56 б.